
HAZRATI ALI MAHALLASIDA MEHMONLAR YETTILIK FAOLIYATI BILAN TANISHISHDI



Hazrati Ali mahallasida mehmonlar yettilik faoliyati bilan tanishishdi

Hazrati Ali mahallasi tumanimizning 2-sektori hududida joylashgan mahalla bo'lib, o'tayotgan yilda bu mahallada ham keng ko'lamli obodonchilik ishlari olib borildi. Mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosining hashar yo'li bilan bunyod etilishi o'tayotgan yilning eng ulkan voqealarning biri sifatida mahalla ahli xotirasida muhralanadi.

Respublikamiz markazidan va Vatanimizning barcha viloyatlaridan tumanimizga tashrif buyurgan mehmonlar guruhi tashrif avvalida aynan ushbu mahallada bo'lishdi. Tojikistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda va O'zbekiston Respublikasi Tojik milliy-madaniy markazi raisi Gulandom Subhonova boshchiligidagi mehmonlar guruhi ushbu mahallada ham munosib kutib olindi.

Mehmonlar tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va tuman sektorlari rahbarlari bilan birgalikda mahallaning yangi binosini ko'zdan kechirishdi. Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputati Subhonali Nishonov mehmonlarga mahallada amalga oshirilgan ishlar xususida ma'lumot berdi.

~~Mahalla raisi ish xonasidagi samimiy suhbatda ikki qardosh xalq do'stligi haqida gapirildi. So'ng mehmonlar ishtirokida mahalla idorasi hovlisiga do'stlik ramzi sifatida mevali va manzarali daraxtlar nihollari o'tqazildi.~~











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-03 17:26:28